PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Hasanova Dilnura Sardor qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-B guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22934015

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat rivoji, inson salohiyatining to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta’minlash, ijtimoiy va pedagogik muhit talablariga mos, ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda negiziy bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolada ijodiy tafakkur, faol bilishga bo‘lgan intilish, fanlarga qiziqish va atrof-muhit hodisalari mazmunini tushunishga ehtiyoj shakllanadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish, ularni ijodkorlikka undash va o‘z salohiyatlarini to‘liq amalga oshirishga ko‘maklashish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.
Kalit so‘zlar: boshlangan sinflar, kreativ faoliyat, fanlararo integratsiya, o‘qitish metodikasi, innovatsion texnologiyalar, ijodiy tafakkur, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, kreativlik, loyiha, o‘yin texnologiyalari, refleksiya.

Аннотация: Начальное образование является ключевым этапом развития общества, обеспечивающим правильное направление человеческого потенциала и воспитание социально активной, самостоятельно мыслящей личности, отвечающей требованиям социально-педагогической среды. В этот период у ребенка развивается творческое мышление, стремление к активному познанию, интерес к науке и потребность в понимании содержания явлений окружающей среды. Поэтому развитие творческой активности у учащихся начальной школы, поощрение их к творчеству и помощь в полной реализации их потенциала является одним из важных направлений современного образования.
Ключевые слова: раннее детство, творческая деятельность, междисциплинарная интеграция, методика преподавания, инновационные технологии, творческое мышление, учащиеся начальной школы, креативность, проект, игровые технологии, рефлексия.

Abstract: The primary education system is a key stage in the development of society, ensuring the correct direction of human potential, and educating a socially active, independent-thinking individual who meets the requirements of the social and pedagogical environment. During this period, the child develops creative thinking, a desire for active knowledge, interest in science, and a need to understand the content of environmental phenomena. Therefore, developing creative activity in primary school students, encouraging them to be creative, and helping them to fully realize their potential is one of the important areas of modern education.
Keywords: early childhood, creative activity, interdisciplinary integration, teaching methodology, innovative technologies, creative thinking, primary school students, creativity, project, game technologies, reflection.

KIRISH

Fanlararo integratsiya g‘oyasi hozirgi paytda dunyo ta’lim tizimidagi ilg‘or pedagogik yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu yondashuv bolalarning bir nechta fan doirasida

bilimlarini mustahkamlash, ularni turli fanlar bilim va ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinflarda fanlararo integratsiya o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini boyitadi, balki ularning nutq madaniyatini, tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi, mustaqil, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. Fanlararo integratsiya asosida kreativ faoliyatni rivojlantirish bir necha muhim pedagogik shart-sharoitlarga tayanadi. Birinchi sharti - o‘qituvchi darsda bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlar elementlarini kirita olishi, ularni konceptual jihatdan bog‘lay bilishi. Har bir mavzu va topshiriqda bola atrof-muhit hodisalari, ona tili, matematika, tasviriy san’at, texnologiya kabi fanlar orasidagi bog‘liqlikni amalda anglay olishi lozim. Bunday yondashuv bola ongida turli predmetlar haqida bilimlar yagona mazmunga ega bo‘lishiga, ularni kundalik hayotda qo‘llab ko‘rishga, olgan bilimlarini yangi vaziyatlarga transfer qilish ko‘nikmasi shakllanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreativ faoliyat so‘z bilan, ma’lumotlar bilan, material bilan tajriba o‘tkazish jarayonida namoyon bo‘ladi. U yangi g‘oya, yangi yondashuv yoki mahsulot yaratishga intilishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kreativligi o‘z so‘zi va harakati bilan biror yangilik qilishga, mustaqil fikr bayon etishga, odatdagidan farqli echimlarni izlashga, fantaziyasini ishga solib, masalani har xil nuqtai nazardan tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Dars jarayonida integratsiyalashgan yondashuv yaratish uchun mavzularda interaktiv o‘yinlar, ijodiy mashqlar, rasm chizish, voqeani hikoya qilib berish, she’r tuzish kabi faoliyatlarni birlashtirish mumkin. Bolalarga mavzuni o‘zaro bog‘liq ravishda yetkazishda asosiy e’tibor ular tomonidan bilimlarning amaliy hayotdagi ahamiyatini anglashga qaratiladi. Masalan, matematik topshiriqlarni hayvonlar, tabiat hodisalari bilan bog‘liq holda yechish, fizikaviy jarayonlarni rasm chizish yoki hikoya yozish orqali tushuntirish, ona tili materiallarini atrof-muhitni o‘rganish jarayonida qo‘llash bolalarda bilimlarning qanchalik muhimligini bevosita his qilishga yordam beradi. Integratsiyalashgan topshiriq bolalarni mustaqil mulohaza yuritish, har bir muammoni o‘z nuqtai nazari bilan hal qilishga undaydi [1].

Kreativ faoliyatni rivojlantirishda o‘yin elementlari muhim ahamiyatga ega. O‘yin - bolada ijodiylikni uyg‘otadigan eng tabiiy muhitdir. O‘yin orqali bolaning idrok etish jarayonlari faol harakatga keladi, u faol fikrlay boshlaydi, o‘z imkoniyatini sinab ko‘radi va o‘z-o‘zini ifoda etadi. Dars jarayonida “Rolli o‘yinlar”, “Fantaziya mashqlari”, “Ijodiy laboratoriyalar” tashkil etish, obrazlar yaratish va ular asosida ertak, voqeani ijod etish ham bolaning kreativ mashg‘ulotlar orqali rivojlanishini ta’minlaydi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fanlararo integratsiyalashgan ta’lim dasturlari o‘quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatiga asoslangan topshiriqlar orqali boyitiladi. Har bir dars, har bir mashg‘ulotda hayotiy muammolar, atrof-muhit fenomenlari, kundalik hayotdagi oddiy narsalardan qanday qilib yangilik yaratish mumkinligini o‘rganishga e’tibor beriladi. Masalan, tasviriy san’at va tabiatshunoslik fanlarini birlashtirib, daraxt hayoti, tabiat qudrati, hayvonot olamining bo‘yoqlardagi ifodasi, ranglar orqali tabiatni ochib berish, matn yoki she’r orqali voqea yaratish - bularning barchasi bolada estetik his-tuyg‘uni, tafakkurni, dunyoqarashni kengaytiradi. Kreativ faoliyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchi guruhli va individual ish usullaridan samarali foydalanadi. Guruhiy topshiriqlarda bolalar o‘z hayolida paydo bo‘lgan g‘oyalarni o‘rtoqlashadilar, birgalikda loyihalar tuzadilar, muammoni jamoa bo‘lib hal qilish usullarini izlaydilar. Ularning bir-biridan tajriba olishi, hamkorlikda yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishi ham kreativ tafakkurning rivojlanishiga asos bo‘ladi. Individual topshiriqlar esa har bir bolaning o‘z salohiyatini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Masalan, har bir bola mustaqil ertak tuzadi, yangi she’r yozadi yoki betakror rasm chizadi [3].

Kreativ faoliyatni fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish metodikasida loyiha qilish usuli ham keng qo‘llaniladi. Loyiha ishlari o‘quvchini mustaqil mavzuni izlash, axborot topish, uni saralash, asoslash, yoritish va yaratish faoliyatiga olib kiradi. Loyiha topshirig‘i ijodkorlik va integral tafakkurni rivojlantirishda juda samaralidir. Masalan, “Mening orzu bog‘im”, “Sayyoramiz zaminida hayot”, “Atrof-muhit muhofazasi” kabi loyihalarda bolalar tabiat va inson, ekologiya masalalari, ijtimoiy muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ustida o‘ylashadi, yangi g‘oyalar olamiga sho‘ng‘ib, ijodiy ishlanmalar tayyorlaydi. O‘quvchilar ijodiy faoliyatining samaradorligini oshirish uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar, to‘garaklar, mahorat darslari tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Ularda bolalar o‘zini erkin va mustaqil ifoda eta oladigan muhit mavjud bo‘ladi. Har xil tanlovlar, ko‘rgazmalar, ijodiy bellashuvlar, teatrlar - bularning barchasi bolaning tasavvurini kengaytiradi, salohiyatini namoyon qilishiga imkon beradi [4].

Yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish kreativlikni rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish, elektron darslik, multimedia resurslar asosida topshiriqlar bajarish, vizual va audio materiallardan ijodiy foydalanish ijobiy natija beradi. Bolalar ochiq manbalardan informatsiya izlashni, tasviriy dasturlarda ishlashni, video hikoyalar tuzishni, online viktorinalarda qatnashishni o‘rganadilar. Yangi texnologik vositalar eski yondashuvlardan farqli ravishda bolalarga yangilik yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Ta’lim muhitida o‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda asosiy metodologik yondashuv shundaki, o‘qituvchi har bir bolaning qiziqishi, iqtidorini inobatga olgan holda, individual rivojlanish hamda jamoaviy hamkorlik uchun sharoit hozirlashi zarur bo‘ladi. O‘qituvchi bolaning har bir muvaffaqiyatini ijobiy baholaydi, uni ilhomlantiradi, xatolarini to‘g‘ri yo‘l bilan tuzatadi va jonli mulohaza yuritish uchun qulay iqlim yaratadi. Har qanday topshiriqda bolaga tanlov, erkinlik, mustaqil fikrlash imkoniyatlari beriladi.

Kreativ faoliyatda refleksiya, ya’ni bolalarning o‘z ishlari ustida o‘ylashi, natijani tahlil qilishi va o‘z o‘zini baholashga o‘rgatish ham juda muhim. Refleksiya orqali bola nimani yaxshi bajargani, nimasi ustida ishlashi lozimligini tushunadi. Bu bosqichda bolaning tanqidiy tafakkuri, o‘z qusurlarini to‘g‘irlashga intilishi, o‘z-o‘zi ustida ishlash motivatsiyasi rivojlanadi. Darsda ilg‘or pedagogik yondashuvlardan biri bu - “konseptual xarita”, “mashg‘ulot diagrammasi”, “fikrlar buluti” usullari orqali yangi masalalarni yechishda o‘quvchi o‘z bilimini tizimli tarzda namoyon qila oladi. Ushbu metodik yondashuv bolani ilmiy izlanishga, mustaqil fikrlashga, ijodkorlik asoslarini o‘rganishga undaydi. Dars yakunida yangi masala, topshiriq yoki muammoning turli yechimlari bo‘yicha mushohada yuritish, muhokama qilish o‘quvchini faol bilim olish muhitiga olib kiradi. Har bir bola o‘z g‘oyasini erkin ifoda etish, savollar berish va faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, natijada, uning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy salohiyati yanada kamol topadi. Integratsiyalashgan o‘quv faoliyatida ijtimoiy hamkorlik unsurini rivojlantirish ham dolzarbdir. Bu bolaning o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitida ishlashini, qarama-qarshi fikrlarni murosaga keltirishni, shuningdek, jamoadagi umumiy javobgarlik, rahbarlik, yetakchilik, hurmat va do‘stlik sifatlarining shakllanishini ta’minlaydi. Ijodiy loyiha va jamoaviy topshiriqlar o‘quvchilarda hamkorlik madaniyati, yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi [5].

Innovatsion loyihalar, gidlar, o‘yinli treninglar, kvest mashg‘ulotlar, tadqiqot ishlari, STEAM yondashuvlar, kreativ master-klass va dramatik mashg‘ulotlar kabi zamonaviy yondashuvlar bola tafakkurining kengayishini, mustaqil o‘qish va bilim olish motivatsiyasining kuchayishini ta’minlaydi. Har bir integratsiyalashgan mashg‘ulot o‘quvchiga o‘zgacha hayotiy voqelikni, yangicha ilmiy ko‘nikma va ko‘rinishlarni ochib beradi. Bolaning o‘z tajribasini o‘rganishi, sinfda va hayotta o‘zini sinovdan o‘tkazishi, natijasini ko‘rishi ongli ijodkor va innovator shaxs kamolotini har tomonlama yakunlaydi.

Xulosa

Fanlararo integratsiya asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilar bilimlarni faqat o‘rganmaydi, balki turli fanlar, voqealar va jarayonlar bog‘liqligini anglaydi, mustaqil izlanishga, muammolarni yechishga va yangilik yaratishga o‘rganadi. Bolaning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy harakat va faoliyati rivojlanib, yangi axborotlarni kombinatsiya qila olish, o‘z g‘oyasini ochiq ifoda etish, zamonaviy sharoitga moslashish, jamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyor bo‘lib yetishadi. O‘qituvchining bilim va malakasi, o‘quv muhitining kreativligiga beriladigan e’tibor, zamonaviy vositalardan foydalanish samarasi natijasida har bir bola o‘z salohiyatini to‘liq ochib bera oladi. Kreativ faoliyatni rivojlantirishda doimiy innovatsion izlanish, yangi metod va usullarni joriy qilish, bola qiziqishi va intilishiga ko‘mak berish orqali boshlang‘ich ta’lim va jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva N.N. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Shodmonova S.S. Boshlang‘ich ta’limda kreativ pedagogika asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Abdullaeva D.M. STEAM-ta’lim: nazariya va amaliyot yo‘llari. Monografiya. Toshkent: Innovatsiya, 2023.
4. Valiyev S.J. Ilk ta’lim bosqichida kreativ tafakkurni rivojlantirish yo‘llari. Toshkent: Buloq, 2019.
5. Umarova G.G. Fanlararo integratsiya va ijodiy faoliyatning zamonaviy asoslari. Toshkent: UzFA, 2022.
6. Norqulova S.B., Abduvahobova M.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Ilm Ziyo, 2015.
7. Xodjayeva M.X., Abdujalilova Z.R. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasi, o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.